



FORMS OF MANIFESTATION OF THE PHENOMENON OF “SOFT POWER” IN ARISTOTLE’S PHILOSOPHY

Xurshid Karimov

Lecturer

Tashkent International University of Education

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: s201@tiue.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: soft power, virtue, public good, values, culture, education, Aristotle.

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: The article explores the forms of manifestation of “soft power” in Aristotle’s philosophy, analyzing key aspects such as virtuous leadership, the role of culture and education, and ethics as the foundation of public life. The philosopher emphasizes the importance of moral authority and values in the creation of social bonds and public good. His works demonstrate that influence on society can occur not only through force, but also through respect and trust, forming the basis for the modern concept of soft power.

ARASTU FALSAFASIDA “YUMSHOQ KUCH” FENOMENINING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Xurshid Karimov

o‘qituvchi

“Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: s201@tiue.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: yumshoq kuch, ezgulik, ijtimoiy manfaat, qadriyatlar, madaniyat, tarbiya, Arastu.

Annotatsiya: Maqola Arastu falsafasida “yumshoq kuch” fenomenining namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Uning ta’limotining asosiy jihatlari, jumladan, ezgu yo‘l-yo‘riq, madaniyat va tarbiyaning roli hamda axloq qoidalari ijtimoiy hayotning asosi sifatida tahlil qilinadi. Arastu ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy manfaatlarni shakllantirishda axloqiy hokimiyat va axloqiy qadriyatlarining muhimligini ta’kidlaydi. Faylasufning asarlari

shuni ko'rsatadiki, jamiyatga ta'sir nafaqat majburlash orqali, balki hurmat va ishonch orqali ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa yumshoq kuchning zamonaviy kontseptsiyasini tushunish uchun muhim zamin yaratadi.

ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ФЕНОМЕНА «МЯГКОЙ СИЛЫ В ФИЛОСОФИИ АРИСТОТЕЛЯ

Хушид Каримов

Преподаватель

международного университета «Tashkent International University of Education»

Ташкент, Узбекистан

E-mail: s201@tiue.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мягкая сила, добродетель, общественное благо, ценности, культура, воспитание, Аристотель.

Аннотация: Статья посвящена исследованию форм проявления феномена «мягкой силы» в философии Аристотеля. Анализируются ключевые аспекты его учения, включая добродетельное руководство, роль культуры и воспитания, а также этику как основу общественной жизни. Аристотель подчеркивает важность нравственного авторитета и моральных ценностей в формировании социальных связей и общественного блага. Работы философа показывают, что влияние на общество может осуществляться не только через принуждение, но и через уважение и доверие, что создает основу для понимания современного концепта мягкой силы.

KIRISH

Bugungi kunda “yumshoq kuchi” fenomeni zamonaviy ijtimoiy nazariya va xalqaro munosabatlarning muhim jihatiga aylangan, zero aynan ushbu fenomen asosida jahonning siyosiy manzarasidagi aktorlar o‘z davlati imidji va siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini ilgari surishadi hamda o‘z ta'siri boshqa mintaqalarga yoyishadi. Bugungi kunda “yumshoq kuch” omili turli siyosiy va falsafiy tadqiqotlarga o‘rganilib bormoqda, ammo uning ildizlari aynan falsafa tarixiga asoslanadi. Arastu antik davr falsafasining muhim va eng yirik namoyondalaridan biri bo‘lganligi tufayli uning falsafasi turli sohalarni qamrab oladi va shu jumladan “yumshoq kuch” fenomenining g‘oyaviy asosi mutafakkirning ijtimoiy falsafasida kuzatilib boradi. Arastu ezgulik, liderning axloqi va madaniyatning jamiyat shakllanishiga alohida e'tibor qaratar ekan, haqiqiy siyosiy ta'sir kuch va majburlash bilan emas, balki axloqiy avtoritet bilan bog‘laydi. Faylasuf tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalar “yumshoq kuch” kontseptsiyasiga muhim zamin yaratgan va bu nafaqat uning ijtimoiy falsafasi, balki etikasi va pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Shu tufayli ham

Arastu falsafasida “yumshoq kuch” kontseptsiyasiga asos solgan turli g‘oyalarni kuzatishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Yumshoq kuch” kontseptsiyasi ilm-fan sohasiga garvardlik olim Djozef Nay tomonidan 20-21 asrlar davomidagi xalqaro tizimda bo‘lgan o‘zgarishlarga javob sifatida kiritilgan bo‘lsada, bugungi kunda ushbu tushuncha ijtimoiy-gumanitar fanlarning keng doirasida faol qo‘llanilmoqda. Ammo uning g‘oyaviy bazasini albatta falsafada ko‘rishimiz lozim. Bunda muhim o‘rinni Arastu falsafasi o‘ynaydi, chunki u “yumshoq kuch” uchun axloq, madaniyat, tarbiya va ta‘lim kabi muhim tushunchalarni batafsil ko‘rib chiqqan. Demak, birinchi navbatda biz nazarimizni Arastuning ijtimoiy falsafasiga qaratamiz. Ma‘lumki, mutafakkir quldorlik jamiyati sharoitida kun kechirgan va o‘zi ham yirik quldorlardan bo‘lgan, ammo uning davrida bo‘lgan turli ijtimoiy-siyosiy va harbiy jarayonlar uni “davlat nima?”, “hokimiyat nima?” va “jamiyat nima?” kabi savollarga javob izlashga undagan. Shu bilan birga, uning davrida keng harbiy yurishlar bo‘lgan va mutafakkir anglaganki, ushbu yurishlar natijasida madaniyatlar to‘qnashuvi bo‘lishi mumkin. Lekin mazkur jarayonlarda muhim va ta‘sirli namuna bo‘ladigan kuchli lider kerakligi juda ahamiyatli. Haqiqiy liderlik esa ezgulikga asoslangan bo‘lishi lozim va bunga aql, qobiliyatlar, mardlik, adolatlilik va kelajakka strategik qarash kabi fazilatlar mavjud bo‘lishi lozim [1, 442]. Shu bilan birga, mutafakkirning nuqtai nazariga ko‘ra, lider o‘z izdoshlarining ishonchini qozonishi uchun donolik, ezgulik va xayrixohlik kabi fazilatlar ham bo‘lishi muhim, chunki ushbu fazilatlar asosida liderning obro‘-e‘tibori shakllanadi. Ma‘lumki, har doim u yoki bu mamlakat imdji uning yetakchisi ham shakllantiradi va shu sababli Arastu ham lider fazilatlarini haqida alohida aytib o‘tgan. Lekin nega mutafakkir yuqorida ta‘kidlangan uchta fazilatga shunday e‘tibor qaratgan? Tadqiqotchi S.Sergeyevaning fikricha, donolik asosida lider aniq masalalar bo‘yicha to‘g‘ri hukm suradi va xulosalarni chiqaradi; ezgulik tufayli u o‘z fikrini vijdonan va adolatli bildiradi; xayrixohlik esa lider to‘g‘ri maslahat, yo‘l-yo‘riq bera olishini kafolatlaydi [2, 22]. Bunday fazilatlarini bor liderga nafaqat uning izdoshlari, balki keng omma ham suyanadi. “Yumshoq kuch” nuqtai nazaridan esa, bunday lider axloqiy namuna bo‘la oladi va madaniy qadriyatlarni ilgari suradi, shu orqali esa davlat o‘z ta‘sirini bosim va kuchsiz mustahkamlaydi. Arastu liderlik mohiyatining ikki turini farqladi:

- 1) xatti-harakatlar liderligi;
- 2) mahoratli liderlik.

Birinchi turdagi liderlik ezgulikga asoslangan bo‘lsada, ikkinchisi esa har qanday vaziyatda o‘zini qanday tutish yo‘lini bilish orqali namoyon bo‘ladi.

Arastu falsafasida “yumshoq kuch” madaniy qadriyatlar va ta‘lim-tarbiyada ham o‘z asosini ko‘radi. Masalan, shaxsda fuqarolik fazilatlarini shakllatirishda ta‘lim-tarbiya tizimi asosiy o‘ringa

ega. Negaki, aynan ta'lim-tarbiya darajasini mamlakatning jahondag imidjini shakllantiradi va shunga yarasha tashqi aktorlar tomonidan munosabat ham bo'ladi. Shunisi muhimki, Arastu uchun barcha insonlar tabiatan bilimga intilishadi va bunga ham hissiy, ham aqliy bilish xizmat qiladi [3, 125]. Lekin uning ta'limotida tarbiya alohida o'ringa ega va u birinchi o'rinni aynan ijtimoiy tarbiyaga qaratgan, zero inson – bu “siyosiy hayvon”. Jismoniy va ma'naviy tarbiya Arastu uchun bir xil ahamiyatga ega, chunki tana va ruh tarbiyasi chambarchas bog'liq. Aflotundan farqli ravishda, Arastu spartan tarbiyasini tanqidlagan va sababi shuki, tarbiyaning ushbu turi insonni “yovvoy hayvonga” aylantiradi. Bunday fuqarolar esa davlatning imidjiga dog' tushurishadi va “yumshoq kuch”ni amalga oshirishda katta to'siq bo'ladi. Ta'lim-tarbiya negaki “yumshoq kuch” nuqtai nazaridan muhim, madaniy tarbiya jamiyatga hamjihatlik va ijtimoiy uyg'unlikni yaratadi, natijada esa insonlar barcha jihatlardan yuqori pog'onalarni egallashadi. Bunday holat esa jamiyat haqida turli ijobiy tasavvurlarni yaratadi va “yumshoq kuch”ni amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham “yumshoq kuch” ta'lim-tarbiya tizimi namunasida yaqqol namoyon bo'ladi, zero o'z ta'siri va obro'-e'tiborini oshirmoqchi bo'lgan davlat chet el mamlakatlarida o'z ta'lim dasturlarini, turli grantlarni joriy qilishga harakat qiladi. Ammo ta'lim-tarbiya tizimini butun jahonda tan olinmagan va sifatsiz deb topilgan davlat uchun mazkur tizim orqali “yumshoq kuch” amalga oshmaydi.

“Yumshoq kuch” uchun muhim resurs bo'lgan ritorikaning asosida aynan Arastu turadi. Lekin ritorika ham buyuk mutafakkir tomonidan ishlab chiqilgan mantiq ilmiga asoslanadi, chunki har qanday pozitsiyani bildirish, uni himoya qilishda kuchli argumentatsiya bo'lishi lozim. Buni ham tadqiqotchi K.Rekosh alohida ta'kidlaydi va shunga e'tiborni qaratadiki, “ ritorika Arastu tomonidan huquqiy diskurs metodologiyasi sifatida taqdim etilgan” [4, 245]. Rekoshning ushbu fikri juda muhim va sababi shuki, antik davrda har qanday sud jarayonida o'z pozitsiyasini himoya qilish uchun nutqi to'g'ri va ravon, argumentatsiyasi esa kuchli bo'lishi kerak edi. “Yumshoq kuch” fenomeni nuqtai nazaridan esa, ritorika samarali vosita hisoblanadi va sababi shuki, ritorika orqali kishilarning xulq-atvori va fikrlash tarziga to'g'ridan-to'g'ri majburlashsiz ta'sir qilish mumkin. Aniq, omma uchun tushunarli, ta'sirli nutq bevosita kerakli ijtimoiy fikrni shakllantiradi va insonlar ongsiz ravishda mazkur ta'sirga tushib qolishadi. Shunisi muhimki, ritorika orqali ishonchni kuchaytirish mumkin, lekin Arastu nuqtai nazaridan ritorika asossiz populizmga aylanishi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mutafakkir ritorikaning quyidagi uchta turini ajratgan:

- 1) demagogik ritorika – ko'pincha siyosiy nutqlar kontekstida ishlatiladi;
- 2) sud ritorikasi – asosan sud jarayonlarida qo'llaniladi;
- 3) epideyktik ritorika – tadbirlardagi chiqishlardi quzatiladi.

Ritorik nutqlarda, chiqishlarda muayyan uyg'unlikni saqlash lozim va bu Arastuning butun falsafiy qarashlariga xos. Bu esa, o'z navbatida, ishontirish orqali amalga oshiriladi. Ishontirishning uchta turi mavjud [5, 1356]:

- 1) etos – notiq, uning xarakteri va obro'siga ishonch;
- 2) pafos – kishilarga emotsional ta'sir qilish, zarur emotsiyalarini ishlatish;
- 3) logos – aniq fakt va fikr-mulohazalarga asoslangan mantiqiy argumentlari.

Ishontirishning yuqoridagi uchta turi "yumshoq kuch" nuqtai nazaridan o'zaro uyg'unlikda bo'lishi lozim, aks holda kishilarda hech qanday ishonchni uyg'otib bo'lmaydi. Buni biz Nelson Mandela yoki Martin Lyuter King misollarida ko'rishimisiz mumkin. Ularning nutqlari shaxsiy tarix va ijtimoiy qadriyatlarga murojaat qilish asosida auditoriya bilan emotsional aloqani o'rnatishga xizmat qilgan. Ya'ni, ishonchi notiqning ta'siri yanada kuchaytiradi va bu kuch ishlatmasdan aniq maqsadlarga erishish uchun yordam beradi.

Demak, Arastu tomonidan aytib o'tilgan ishontirishning uchta turi uyg'unligi ommada ishonchi shakllantiradi, lekin shu bilan birga ijtimoiy fikrni ham shakllantiradi va zarur hollarda samarali ritorika ushbu ijtimoiy fikrni o'zgartiradi yoki yangicha yondashuvni vujudga keltiradi. Asosiysi esa shuki, hech qanday "qattiq kuch" ishlatilmaydi va turli resurslar tejaladi. Bundan tashqari, yuqorida biz bir necha marta u yoki bu jihatlarning uyg'unligiga e'tibor qaratdik va bu bejiz emas. Arastu o'z qarashlarida "oltin o'rtalik" kontseptsiyasini ilgari surgan. Ushbu kontseptsiya uning etikasida yaqqol namoyon bo'lgan. Arastu u yashagan jamiyatning siyosiy tizimida tabaqalarning uzoq kurashishi mavjudligini bilib, har qanday davlatda boylar, qashshoqlar va ularning o'rtasidagi tabaqa borligini aniqlab chiqqan [6, 570]. Uning diqqat-e'tibori markazida aynan o'rta tabaqa turgan, negaki aynan ushbu tabaqa barqaror holatda v bu jamiyata barqarorligi uchun muhim poydevor. Aynan shu tabaqa ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda muayyan balansni ta'minlaydi va umumiy manfaatlar uchun qayg'uradi. Shu nuqtai nazardan, "oltin o'rtalik" pozitsiyasini egallagan o'rta sinf ijtimoiy tartibning kafolatidir. Arastuning mazkur fikri asosida shuni ko'rishimiz mumkinki, barcha xatti-harakatlar "oltin o'rtalik" tamoyiliga asoslangan bo'lishi shart. Har qanday mamlakat o'z obro'-e'tiborini oshirmoqchi bo'ladi, lekin bunda "o'rtacha" pozitsiyani saqlab qolish muhimki, muayyan qarorlar salbiy natija berib, davlatning imidjini poymol qilmasin. "Yumshoq kuch"ni qo'llash jarayonida liderlar yoki boshqa ushbu jarayonda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar kishilarga shunday ta'sir qilishlari kerakki, ularning fikr va qadriyatlarini o'zaro uyg'unlikka keltirishlari lozim. Bundan tashqari, "oltin o'rtalik" tamoyili har qanday qaror qabul qilinayotganda, aktorlar o'z his-tuyg'ulari va emotsiyalarini tartibga solishini talab qiladi [7, 89]. "Yumshoq kuch"dan foydalanish jarayonida mazkur tamoyil turli nizolarni oldini olishga xizmat qiladi, murosa yoki konsensusni topishga undaydi.

Arstu falsafasida “yumshoq kuch” fenomeni quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqdik:

1. Ezgulik tushunchasi, zero bu faylasuf uchun siyosiy boshqaruvning asosiy maqsadi. Mazkur g‘oya J.-J.Russo yoki T.Gobss qarashlarida o‘z davomida topgan. Ular ezgulik tushunchasini o‘z davlat modelini shakllatirishda qo‘llashgan. Shu bilan birga, Arastu ezgulik tushunchasi asosida o‘z axloqiy qarashlarini shakllantirgan va bu esa axloqiy liderlik sifatida transformatsiyalangan. Ushbu g‘oya keyinchalik O‘rta asrlarda integratsiyalangan, xususan Foma Akvinskiy axloqiy tamoyillarni siyosiy boshqaruv bilan bog‘lagan.

2. Liderlik, chunki aynan lider qiyofasi kishilar uchun davlat imidjining muhim namunasi. Yuqori axloqiy standartlarga rioya qiladigan lider kishilar fikrini, ijtimoiy fikrni ishontirish va o‘z obro‘-e‘tibori orqali boshqaradi.

3. Ta‘lim-tarbiya, sababi aynan ushbu tizim orqali fuqarolar ahamiyatli namuna bo‘la oladi va shu asosda “yumshoq kuch” turli o‘zgarishlar uchun ijobiy ta‘sir o‘tkaza oladi.

4. Ritorika, zero bu umuman siyosat uchun muhim vosita. Arastu ritorikasi siyosiy diskussiyalardagi ishontirish va manipulyatsi nazariyalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Zamonaviy siyosiy ritorika va kommunikatsiya nazariyalari faylasufning aynan ushbu fikrlariga asoslangan.

5. Zamonaviy siyosiy-falsafiy nazariyalarga ta‘sir qilayotgan “oltin o‘rtalik” kontseptsiyasi. Bunda siyosiy boshqaruv hamda “yumshoq kuch”ni ishlatishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur g‘oya turli siyosiy tizimlarda o‘z namoyonini topdi.

“Yumshoq kuch”ni Arastu falsafasida namoyon bo‘lishining yuqoridagi shakllari O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va bunda fuqarolarning ijtimoiy faolligi yanada oshirilmoqda. Jahon siyosiy manzarada O‘zbekistonni siyosiy aktorga aylantirishda aynan yuqoridagi o‘z transformatsiyasiga ega, chunki axloqiy standartlarga asoslanib faoliyat olib borayotgan liderlar jamiyatni ilhomlantirishi, o‘zaro ishon va hamkorlik muhitini yarata olishadi. Bu esa barqaror ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirishda alohida e‘tiborga sazovor. Aholining turli guruhlarida ritorika va ochiq muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy hamjihatlik va nizolarni oldini olishga xizmat qiladi. Muhimki, barcha nizolarni murosasida hal qilish O‘zbekiston uchun madaniyatlararo munosabatlarni mustahkamlaydi. Bularning barchasi fuqarolarning mas‘uliyati va ijtimoiy adolatni yanada takomillashtiradi.

Yuqoridagilarni aniq monitoringini amalga oshirish uchun quyidagi modelni taklif qilish mumkin:

$$M = k \times (E + R + C + O)$$

Bu yerda:

Ye – axloqiy ta‘sir (masalan, ishonch darajasi);

R – ritorik ta'sir (masalan, ishontirish qobiliyati);

S – murosa (masalan, hamjihatlik darajasi);

O – aholining ta'lim darajasi;

M – yumshoq kuch darajasi;

k – aniq kontekstda har bir jihatning ahamiyatini bildiradigan koeffitsiyent.

Mazkur modelni amaliyotda qo'llash uchun ma'lumotlarni ijtimoiy so'rovnomalar, media-kontentning tahlili, ta'lim statistikasi, keys-stadi va intervyu hamda turli ijtimoiy-madaniy loyihalarning natijalari asosida olishimiz mumkin.

Masalan, har bir ko'rsatgichni muayyan raqamlar asosida taxmin qilsak:

$E = 7, R = 8, C = 6, O = 7$ va $k = 1$

Ushbu raqamlarni formulaga qo'ysak, quyidagi natijani olamiz:

$$M = 1 \times (7 + 8 + 6 + 7) = 28$$

$M=28$ natijasi olingan ma'lumotlar asosida "yumshoq kuch" uchun indikator bo'ladi. Ushbu ko'rsatgich boshqa mintaqalar bilan taqqoslash va o'zgarishlar monitoringi uchun qo'llanishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur ko'rsatgich "yumshoq kuch"ni kuchaytirish kerak bo'lgan aniq tomonlarini ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Arastu falsafasi kontekstida "yumshoq kuch" fenomeni axloqiy tamoyillar, ezgulik, ritorika va liderlik kabi ko'p qirrali shakllarda namoyon bo'ladi. Bu birinchi navbatda ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilishi lozim. O'zaro ishonch, hamkorlik va axloqiy qadriyatlarga asoslangan "yumshoq kuch" jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori. Ushbu poydevor ta'minlangan taqdirda har qanday davlat o'z obro'-e'tiborini yanada mustahkamlaydi. Bularning barchasi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va jahon hamjamiyatidagi pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu ijtimoiy o'zaro aloqalarni, ishonch muhiti va hamkorlik, ko'p madaniyatli jamiyatda uyg'unlikna ta'minlashga hamda jahon siyosiy jarayonlarning aktorlari bilan birgalikda mamlakatning imidjini takomillashtirish va shu orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga muhim imkoniyat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Древнегреческая философия: От Платона до Аристотеля. – Харьков: Фолио, 2003.
2. Сергеева С.А. Эволюция философских идей и концепций лидерства // Армия и общество. – 2013. – №1(33). – С.20-26.
3. Аристотель. Сочинения в 4 т. Т.1. – Москва: Мысль, 1976.
4. Рекош К.Х. Риторика Аристотеля: юридический взгляд // Вестник МГИМО Университета. – 2015. – №3(42). – С.244-249.
5. Тахо-Годи А. Античные риторики. – Москва, 1978.
6. Аристотель. Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории. – Минск, 1998.
7. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // Wisdom. – 2022. – №4(24). – P.84-90.